

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.B.04.09.M RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

KURBONOVA GUZAL SALAYEVNA

**INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA
O'QUVCHILARNING KREATIVLIK QOBILIYATLARINI
RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH
(biologiya fani misolida)**

13.00.02-Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Nukus – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Kurbonova Guzal Salayevna

Innovatsion ta’lim texnologiyalari vositasida o‘quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish (biologiya fani misolida)..... 3

Курбонова Гузал Салаевна

Совершенствование механизмов развития творческих способностей студентов средствами инновационных образовательных технологий (на примере биологии)..... 21

Kurbonova Guzal Salayevna

Improvement of the mechanisms of development of students' creative abilities by means of innovative educational technologies (in the example of biology)..... 41

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 45

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.B.04.09.M RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

KURBONOVA GUZAL SALAYEVNA

**INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA
O'QUVCHILARNING KREATIVLIK QOBILIYATLARINI
RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH
(biologiya fani misolida)**

13.00.02-Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Nukus – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Ped8223 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.karsu.uz) hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Jumanov Muratbay Arepbaevich biologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Maxmudova Dilfuza Meliyevna pedagogika fanlari doktori, professor Salimova Sarvinoz Farxodovna pedagogika fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	Urganch davlat pedagogika instituti


Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.B.04.09.M raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2026 yil «07» may kuni soat 09⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Universitet majlislar zali. Tel.: (+99861) 223-60-47, faks (+99861) 223-60-78, E-mail: karsu.info@edu.uz).


Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№503-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1 uy, Tel.: (+99861) 223-59-49.


Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «22» aprel kuni tarqatildi.

(2026 yil «22» aprel №.4-raqamli reestr bayonnomasi)




Ya.I.Ametov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor


M.K.Begjanov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.f.d.,
dotsent


T.I.Juginisov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy
seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Globalashuv sharoitida dunyoda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion ta'lim texnologiyalari vositasida ijodkor shaxslarni shakllantirish, ta'lim oluvchilarning ijodiy faoliyatlarini samarali tashkil etish amaliyotiga katta ahamiyat qaratilmoqda. Jahonnig ta'lim tizimi rivojlangan mamlakatlarda "ijodiylik" («creativity»), muammolarga sifatli yechim topish, tarbiyalash nazariyalari ommalashib borayotganligi ta'lim oluvchilarining o'z fikrini ifodalash (self-expression), o'zini ko'rsata bilish (self-realisation), o'ziga bo'lgan ishonch (self-confidence), o'ziga baho berish (selfevaluation) kabi, "personal adjustment", ya'ni "shaxs va muhit uyg'unligi"ni jamlovchi doimiy ravishda yangi g'oyalarni izlab topish, amalga tatbiq etish ko'nikmalarini rivojlantirishni taqozo qilmoqda¹.

Xalqaro miqyosda tabiiy fanlar ta'limi samaradorligini oshirish, o'qitish metodikasini takomillashtirish, unga innovatsiyalarni tatbiq etish, innovatsion ta'lim texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish, kreativ o'quvchi-yoshlarni tayyorlash hamda o'quv fanlarining o'quv-metodik bazasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. O'quvchilarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish hamda samarali ijodiy faoliyatni tarkib toptirish imkoniyatiga ega bo'lgan biologiya ta'limi jarayonlariga innovatsion yondashuv asosida tayyorlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini zamon andozalariga moslashtirish, o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish orqali ijodiy ta'lim jarayonini amalga oshirish, kreativ fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash hamda o'quvchilarda kreativ sifatlarni rivojlantirishning samarali metod, shakllarini ishlab chiqish masalalariga katta ahamiyat qaratilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish va inson kapitalini rivojlantirish" deb nomlangan to'rtinchi ustuvor yo'nalishida "Maktablarda ta'lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish"² vazifasi belgilab qo'yilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 8 avgustdagi "Kimyo va biologiya ta'lim yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4805-son Qarorida ham umumta'lim maktablarida "Kimyo va biologiya fanlari bo'yicha ta'lim sifatini tubdan oshirish, umumta'lim maktablarida ushbu fanlarni o'qitishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish, ta'lim muassasalarini zamonaviy laboratoriyalar, darsliklar va boshqa o'quv jihozlari bilan ta'minlash, ushbu yo'nalishlarga malakali o'qituvchi-murabbiylarni jalb etish, kadrlar tayyorlash va ilm-fan natijalaridan foydalanishda ta'lim, ilm-fan va

¹ Parrish P.E. (2009) Aesthetical principles for instructional design. Educational Technology Research and Development. 57(5). 511-528

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. (44-maqсад).

ishlab chiqarish sohalari o'rtasida o'zaro yaqin muloqot va hamkorlikni yo'lga qo'yish" masalalariga ahamiyat qaratilgan³.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son, 2020 yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-son Farmonlari, 2019 yil 16-yanvardagi "Ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4119-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 8 avgustdagi "Kimyo va biologiya ta'lim yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4805-son, 2020 yil 27 fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-son, 2022 yil 21 iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-289-son, Qarorlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-son, Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari, "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni hamda 2020 yil 8 avgustdagi "Kimyo va biologiya ta'lim yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4805-son Qarori mazkur tadqiqot ishining nazariy-metodologik asosi bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda ta'lim oluvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish, kreativ o'qitish muammolari A.R.Aripjanova, A.A.Xalikov, G.Ibragimova, M.Urazova, M.Kadirova, Sh.Pozilova, M.Tilakova va boshqa olimlar tomonidan o'rganilib, ilmiy-metodik asoslari ishlab chiqilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida Yu.Jigalova, M.Kashapova, Ye.Panova, T.Barisheva, Yu.Volkova, Ye.Podguzova, Ye.Shelestova, N.Stepanenko, V.S.Lazarev va boshqa olimlar ta'lim oluvchilarda kreativlikni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 8 avgustdagi "Kimyo va biologiya ta'lim yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4805-son Qarori.

Xorijiy davlatlarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish masalalar D.Harrington, D.Wechsler, F.Barron, S.Thaler, E.Torrance va boshqa olimlarning izlanishlarida tadqiq etilgan.

Respublikamizda ta'lim jarayonlariga ilg'or pedagogik va innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalalari A.A.Abduqodirov, R.X.Jo'raev, U.N.Nishonaliev, N.S.Sayidahmedov, N.N.Azixodjaeva, J.G'.Yo'ldoshev, L.V.Golish, D.A.Xidoyatova va boshqa shu kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida ko'rishimiz mumkin.

Biologiya o'qitish metodikasini takomillashtirish va ta'lim samaradorligini oshirish masalalari A.G'ofurov, J.Tolipova, S.Fayzullaev, G.Ergasheva, L.Qoraxonova, M.Ibodova, U.Raxmatov, M.Ongarov va boshqalar tadqiqotlarida o'rganilgan.

Tahlillarga ko'ra, biologiya fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish, biologiya ta'limiga innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsada, innovatsion yondashuvga asoslangan biologiya ta'limida o'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari, jumladan, umumta'lim maktablarida ushbu masalani yanada takomillashtirish mexanizmlari bugungi zamon talablariga mos darajada tadqiq etilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qoraqalpoq davlat universiteti "Umumiy biologiya va fiziologiya" kafedrasining "Ta'lim texnologiyalari asosida biologiya fanini o'qitish mazmunini takomillashtirish" ilmiy-tadqiqot mavzusi (2022-2025) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi biologiya ta'limida innovatsion ta'lim texnologiyalari vositasida o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

biologiya ta'limida o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik, intellektual-ijodiy hamda pedagogik omillarini aniqlashtirish.

muammoli ta'lim texnologiyalarining didaktik maqsadlari va vazifalari asosida biologiya fani bo'yicha pedagogik muammoli topshiriqlar hamda kreativ faoliyatni amalga oshirishda foydalaniladigan amaliy topshiriqlar ishlab chiqish;

biologiya fanidan kreativlikka yo'naltirilgan laboratoriya mashg'ulotlarida o'quvchilarning kreativ faoliyatini shakllantirish mexanizmlarini interfaol metodlar va shaxsiy kompetensiyalarni rivojlantirish asosida takomillashtirish.

umumta'lim maktablarida biologiya ta'limi mazmunini kognitiv, kommunikativ, motivatsion va kreativ jihatlar integratsiyasida takomillashtirish va sinfdan tashqari mashg'ulotlar metodikasini rivojlantirish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida umumta'lim maktablarida biologiya fanini innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumani 1, 12 va 41-umumta'lim maktablari, To'rtko'l tumani 2 va 5-umumta'lim maktablari hamda Beruniy tumani 3-umumta'lim maktablaridan 640 nafar o'quvchilari jalb etilgan.

Tadqiqotning predmeti innovatsion ta'lim texnologiyalari vositasida o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishning mazmuni, shakl, metod va vositalari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, tajriba-sinov, pedagogik monitoring, modellashtirish, so'rovnoma, test, suhbat shuningdek, olingan natijalarni matematik va statistik tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

biologiya ta'limida o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik (qiziqish, motivatsiya, qobiliyat, ehtiyoj), intellektual-ijodiy (o'quv-materiallarni idrok etish, ijodiy fikrlash), hamda pedagogik (yuqori bilish samaradorligiga erishish, g'oyalar yaratish, yangilikka intilish) omillari aniqlashtirilgan;

muammoli ta'lim texnologiyalarining didaktik maqsadlari va vazifalari asosida biologiya fani bo'yicha pedagogik muammoli topshiriqlar (Muammo, Muammoli vaziyatlar) hamda kreativ faoliyatni amalga oshirishda foydalaniladigan didaktik topshiriqlar ishlab chiqilgan;

biologiya fanidan tashkil etilgan kreativ faoliyatga yo'naltirilgan laboratoriya mashg'ulotlarida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish jarayoni interfaol ta'lim metodlari (Keys-stadi, "Zinama-zina" metodi, "O'z o'ringni top" metodi, "Qarama-qarshi munosabat" metodi, "Skarabey" texnologiyasi)dan foydalanish asosida takomillashtirilgan;

umumta'lim maktablarida biologiya fanini innovatsion ta'lim texnologiyalari (muammoli ta'lim, interfaol ta'lim, loyiha ta'lim texnologiyalari, hamkorlik ta'lim texnologiyalari) asosida tashkil etish mazmuni o'zini-o'zi kasbiy-shaxsiy rivojlantirish motivatsiyasi hamda metodik-tashkiliy, kommunikativ kabi omillarning o'zaro bog'liqligi asosida biologiya fanidan kreativ sifatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

biologiya ta'limini innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etish va o'quvchilarning kreativ sifatlarini rivojlantirishning o'quv-didaktik ta'minoti (metodik tavsiyalar, takliqlar, uslubiy qo'llanmalar) ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan;

biologiya fanini o'qitishda o'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tajrib-sinov ishlari tashkil etilgan va olingan natijalar asosida ilmiy-metodik tavsiya va takliflar ishlab chiqilgan;

Innovatsion yondashuv asosida biologiya ta'limini tashkil etish, o'quvchilarning kreativligini rivojlantirishga qaratilgan metod va vositalardan foydalanish imkoniyatlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik statistika metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati biologiya fanini o'qitish mazmuni takomillashganligi, innovatsion yondashuvlar asosida kreativ qobiliyatni rivojlantirishning pedagogik omillarining asoslanganligi hamda o'quvchilarda kreativ sifatlarni rivojlantirishning samaradorligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy metodik ta'minoti ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ta'lim jarayonlariga innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha uslubiy va o'quv qo'llanmalarni ishlab chiqish hamda umumta'lim maktablari biologiya fanini o'qitishning mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarini takomillashtirishning istiqbolli yo'nalishlari belgilab berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqotning innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida biologiya ta'limini tashkil etish va o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy natijalari asosida:

biologiya ta'limida o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik, intellektual-ijodiy hamda pedagogik omillarini aniqlashtirishga doir takliflardan "Ta'lim texnologiyalari asosida biologiya fanini o'qitish mazmunini takomillashtirish" mavzusiga oid loyihadagi vazifalarni bajarishda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025 yil 19 noyabrdagi 04-23-10068-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'quvchilarning qiziquvchanlik, o'qish motivatsiyasi, intellektual qobiliyat, o'z-o'zini namoyon etish, ijodiy idrok etish kabi kreativ sifatlarni rivojlantirish imkoniyati oshirilgan;

muammoli ta'lim texnologiyalarining didaktik maqsadlari va vazifalari asosida biologiya fani bo'yicha pedagogik muammoli topshiriqlar (Muammo, muammoli vaziyatlar) hamda kreativ faoliyatni amalga oshirishda foydalaniladigan amaliy topshiriqlar ishlab chiqishga oid taklif va tavsiyalari Qoraqalpog'iston respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi amaliyotiga joriy etilgan (Qoraqalpog'iston respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025 yil 19 noyabrdagi 04-23-10068-son ma'lumotnomasi). Natijada, biologiya fanidan pedagogik muammoli vaziyatlar va kreativlikka yo'naltirilgan muammoli topshiriqlar ishlab chiqish orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish, xulosa chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga erishilgan;

biologiya fanidan tashkil etilgan samarali kreativ faoliyatga yo'naltirilgan laboratoriya mashg'ulotlarida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish jarayoni interfaol ta'lim metodlaridan foydalanishga oid taklif va tavsiyalardan "Ta'lim texnologiyalari asosida biologiya fanini o'qitish mazmunini takomillashtirish" mavzusiga oid loyihadagi vazifalarni bajarishda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025 yil 19 noyabrdagi 04-23-10068-son ma'lumotnomasi). Natijada, biologiya fanidan laboratoriya mashg'ulotlarida o'quvchilarning kreativ sifatlarni samarali rivojlantirish imkoniyati sezilarli darajada oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy chop etilgan. Shulardan, O'zbekiston respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 2 tasi Respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 126 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti aniqlangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumotlar bayon qilingan.


Dissertatsiyaning **“Innovatsion ta'lim texnologiyalari vositasida kreativ qobiliyatni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida innovatsion ta'lim jarayonlarini tashkil etishning ijtimoiy-pedagogik zarurati va nazariy asoslari, innovatsion yondashuv asosida kreativ qobiliyatni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik talqini hamda biologiya ta'limini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish va o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari yoritilgan.

Innovatsion ta'lim texnologiyalarining asosiy vazifasi ta'lim jarayonlarini faollashtirish, hamkorlikdagi munosabatlarini tarkib toptirish hamda samarali kreativ faoliyatni yo'lga qo'yish hisoblanadi. Tadqiqot ishida mavjud manbaalardagi nazariy ma'lumotlarni tahlil etgan holda, ta'limni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etish va o'quvchilarning innovatsion faoliyatga tayyorlashning tamoyillari (*Yaxlitlik, Tizimlilik, Rivojlantirish, Yo'nalganlik*) aniqlandi va ularning mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, mazkur bobning birinchi faslida innovatsion ta'lim texnologiyalarining ta'lim natijadorligini ta'minlashdagi asosiy omil ekanligini inobatga olgan holda, zamonaviy ta'limning samarali texnologiyalari (Interfaol ta'lim texnologiyalari, Muammoli ta'lim texnologiyalari, Loyihalashtirilgan ta'lim texnologiyalari, Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari, Hamkorlikdagi ta'lim texnologiyalari)ning mazmun-mohiyati hamda ularning ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlari va kreativ sifatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati ochib berilgan.

O'quvchilarda rivojlantiriladigan kreativ sifatlar jamiyat taraqqayoti va o'quvchi shaxsiy fazilatlarining rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda o'quvchilarning kreativ sifatlarining tarkib topishiga ta'sir qiluvchi shaxs kreativligining muhim jihatlari (g'oyalarni ilgari surish, fikr bildirish, to'g'ri qarorlar qabul qila olish, ijodkorlik) rivojlantiriladi. Kreativ g'oyalarni ilgari sura

olishi uchun shaxsda kreativ tafakkur rivojlangan bo'lishi zarur. Bu turdagi tafakkur tafakkurning boshqa shakllaridan innovatsion, samarali qarorlarga yoki yangi bilimlarga ega bo'lish yoki tasavvurni yaqqol ifodalashga yo'naltirilgan jarayonda g'oyalarni ishlab chiqish, baholash va takomillashtirish jarayonida muvaffaqiyatli ishtirok etish qobiliyatini namoyon etishi bilan farq qiladi. Shaxsda kreativ tafakkur o'z-o'zidan rivojlanmaydi. Har qanday muammoga tezkorlik bilan munosabatda bo'lish va murakkab vaziyatdan chiqishning nostandart usullarini topish kreativ tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi.

Mazkur bobda o'quvchilarda rivojlantirilishi lozim bo'lgan kreativ qobiliyatlar hamda bu qobiliyatlarni rivojlantirish metodikasini interfaol ta'lim usullari asosida takomillashtirish mexanizmlari aniqlangan (1-rasm).



1-rasm. O'quvchilarda shakllantiriladigan kreativ qobiliyatlar

Shuningdek, ta'lim jarayonlarida o'quvchilarning kreativlik sifatlarini rivojlantirishdagi muhim bo'lgan yondashuv (Germenevtik yondashuv, Assotsiativ yondashuv, Vizual-obrazli yondashuv, Faoliyatli yondashuv, Muammoli yondashuv, Texnologik yondashuv, Interfaol yondashuv, Polilogik yondashuv, Hissiy-psixologik yondashuv, Ijodiy yondashuv, Intergrativ yondashuv, Refleksiv yondashuv)larning mazmun-mohiyati ochib berilgan.

O'quvchilarda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishning quyidagi bir nechta tarkibiy qismlari ajratildi (1-jadval).

1-jadval

Kreativ qobiliyatni rivojlantirishning tarkibiy qismlari

Kreativlikning tarkibiy qismlari				
Mustaqillik	Intuitsiya	Refleksiya	Tafakkur	G'ayrioddiy savollar
Tasavvur	Shaxsiy yo'nalganlik	Nostandart yechim	Ijodkorlik	G'oyalarning yaratilishi

Ushbu bobda biologiya ta'limida o'quvchilarning kreativ faoliyatini amalga oshirishda muammoli o'quv topshiriqlarining ahamiyati ochib berilgan bo'lib, mazkur o'quv topshiriqlari ("Muammo", "Muammoli vaziyat", "Muammoli savollar" va "Keys-stadi" metodi, "Loyiha" metodi)dan foydalanish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning **"Biologiya ta'limida o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning mazmuni va metodlari"** deb nomlangan ikkinchi bobida biologiya darslarida o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning metod, vosita va texnologiyalari aniqlangan, biologiya fanidan laboratoriya mashg'ulotlarida o'quvchilarning kreativ faoliyatini tarkib toptirish va biologiya fanidan elektron ta'lim muhitini yaratish va o'quvchilarning kreativ sifatlarini rivojlantirish metodikasi takomillashtirilgan.

Innovatsion ta'lim texnologiyalarining asosiy mohiyati har bir shaxsda mavjud bo'lgan uning ehtiyoji, qiziqishi, iqtidori va imkoniyatlari asosida ularda ijobiy xislat va fazilatlarni shakllantirish, rivojlantirish hisoblanadi. Demak, innovatsion ta'lim sharoitida zamonaviy o'quvchi shaxsini tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etib, ijtimoiy pedagogik ustuvor ahamiyatga ega. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat o'quvchilar uchun qiziqarli hisoblanadi, shuningdek, ularning ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etilishi ularning faollik ko'rsatishlariga yordam beradi. Bu kabi faoliyat ayniqsa, biologiya fanini o'qitish jarayonida ahamiyatli hisoblanadi.

Zamonaviy sharoitda ta'limning eng texnologiyalaridan foydalanish va ta'lim samaradorligiga erishish dolzarb hisoblanadi. Shu sababli, mazkur bobda biologiya darslarida o'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlanishiga yordam beruvchi inerfaol ta'lim metodlari ("Zinama-zina" metodi, "O'z o'ringni top" metodi, "Qarama-qarshi munosabat" metodi, "Skarabey" texnologiyasi)ning didaktik imkoniyatlari aniqlangan va ushbu texnologiyalardan biologiya fanini o'qitishda foydalanish bo'yicha namunalar ishlab chiqilgan.


Biologiya fanidan sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarning darslardan bo'sh vaqtlarida olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayoni hisoblanadi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar har tomonlama yetuk, komil insonlarni tarbiyalashning eng qulay usullaridan biri bo'lib, o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini, tashabbuskorligini rivojlantirib, shaxs sifatida shakllanishi hamda mustaqilligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, mazkur bobda o'quvchilarning samarali kreativ faoliyatini amalga oshirishda sinfdan tashqari mashg'ulotlarning ahamiyati, pedagogik imkoniyatlari yoritilgan bo'lib, bu jarayonda biologiya fani o'qituvchisining asosiy vazifalari, sinfdan tashqari olib boriladigan mashg'ulotlar mazmunida o'quvchilarga biologik ta'lim-tarbiya berish masalalari yoritilgan.

Shu bilan birgalikda, biologiya fanidan sinfdan tashqari tadbirlar, to'garak faoliyati va o'quvchilar konferensiyasini mazmunli tashkil etish, fenalogik kuzatishlar olib borish metodikasi ishlab chiqilgan hamda bu jarayonda o'quvchilarda kreativ sifatlarni tarkib toptirishning pedagogik-psixologik jihatlari ochib berilgan.

Mazkur bobning biologiya fanidan laboratoriya mashg'ulotlarida o'quvchilarning kreativ faoliyatini tarkib toptirishga bag'ishlangan ikkinchi faslida

umumta'lim maktablari biologiya ta'limida kreativ qobiliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi takomillashtirilgan. Umumta'lim maktablari biologiya ta'limida laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish mazmuni mazkur mashg'ulotlar jarayonida amalga oshiriladigan maqsad va vazifalar, biologiyaga oid o'quv materiallarini chuqur o'zlashtirish bilan belgilanadi. Biologiya fanidan kreativ qobiliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan laboratoriya mashg'ulotlariga qo'yiladigan didaktik talablar, didaktik tamoyillar, *ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi* maqsadlari aniqlangan.

Shuningdek, biologiya ta'limida kreativlikka yo'naltirilgan laboratoriya mashg'ulotlarini belgilangan talablar asosida tashkil etishda o'qituvchining asosiy vazifalariga oydinlik kiritilgan (2-rasm).




2-rasm. Biologiya ta'limida kreativ faoliyatga yo'naltirilgan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishda amalga oshiriladigan vazifalar

Umumta'lim maktablarida tabiiy fanlarni o'qitishda elektron ta'lim muhitining imkoniyatlari doirasi o'quvchilarning o'quv-bilish, ijodkorlik va kreativ sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan kreativ texnologiyalar joriy qilish bilan belgilanadi. Shuningdek, o'qitishni elektron ta'lim muhitida tashkil etilishi o'quvchilarning yaratuvchanlik qobiliyalarini yanada rivojlantirishga yordam beradi. Kreativ qobiliyatni rivojlantirishga qaratilgan elektron ta'lim muhitida o'quvchilarning kreativ faoliyati va fikrlashi odatdagidan farq qilib, bunda ular tomonidan pedagogik jarayonning samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladigan yangi g'oyalar, takliflar ishlab chiqiladi, shuningdek, muammoli vaziyatlarning muqobil yechimini topishga bo'lgan tayyorgarligi ifodalanadi. Bunda o'quvchida

ijodkorlik bilan bog'liq holda bilish jarayoniga yo'naltirilgan faoliyat amalga oshirilib, o'z-o'zini namoyon qilish, mustaqil izlanish layoqati namoyon bo'ladi.

Mazkur bobning uchinchi faslida biologiya fanidan o'quvchilarning kreativ sifatlarini rivojlantirishning elektr on axborot ta'lim muhiti (EATM)da amalga oshirilishi masalalari yoritilib, bu jarayonda elektr on axborot ta'lim resurslari (EATR) imkoniyatlaridan foydalanish metodikasi takomillashtirilgan.

Biologiya ta'limida o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda rivojlantirish imkoniyatlarini hisobga olgan holda aytish mumkinki, bu jarayonni EATMda amalga oshirilishi o'quvchilarning faol kreativ faoliyatini amalga oshishiga katta xissa qo'shadi. Shu sababli, darsdan tashqari o'quv faoliyatida biologiya fanidan o'quvchilarning kreativ sifatlarini EATRLari vositasida rivojlantirishning quyidagi tuzilmasi ishlab chiqildi (3-rasm).



3-rasm. Elektron axborot ta'lim muhitida kreativlikka yo'naltirilgan darsdan tashqari o'quv faoliyatini tashkil etish tuzilmasi

Dissertatsiyaning **“Biologiya ta’limida o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijalari”** deb nomlangan uchinchi bobida Biologiya ta’limida o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi yoritilgan hamda tajriba-sinov ishlarining statistik tahlili va samaradorlik darajasi aniqlangan.

Tadqiqot ishining maqsad va vazifalari asosida o‘tkazilgan pedagogik-tajriba-sinov ishlarining asosiy maqsadi umumta’lim maktablari biologiya ta’limini innovatsion ta’lim texnologiyalari vositasida tashkil etish va o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini o‘rganish va sinovdan o‘tkazish hisoblanadi.

Tajriba-sinov ishlarida biologiya ta’limini innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida o‘qitish va o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning mavjud holatini o‘rganish; biologiya darslarida o‘quvchilarning kreativ sifatlarini rivojlantirishning tashkiliy-amaliy jihatlarini o‘rganish; innovatsion ta’lim muhitida o‘quvchilarning kreativ faoliyatini tashkil etishni samarali metodlarini aniqlash; biologiya darslarida o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga mo‘ljallangan metodikani ishlab chiqish; biologiya darslarida o‘quvchilar tomonidan kreativ qobiliyatlarni o‘zlashtirilishini ta’minlovchi qulay pedagogik muhitni yaratish; innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida biologiya ta’limi samaradorligini oshirish hamda o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish kabi vazifalarni amalga oshirishga e’tibor qaratildi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari uchta (*o‘rganuvchi, shakllantiruvchi, yakunlovchi*) bosqichlarda olib borildi. Pedagogik tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish uchun 2022-2025 yillar davomida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ellikqal’a tumani 1, 12 va 41-umumta’lim maktablari, To‘rtko‘l tumani 2 va 5-umumta’lim maktablari hamda Beruniy tumani 3-umumta’lim maktablaridan 640 nafar respondent-o‘quvchilari (320 nafar tajriba guruhi, 320 nafari nazorat guruhi) ishtirok etishdi.

O‘rganuvchi tajriba-sinov bosqichi (2022-2023 yillar)da tadqiqot ishining asosiy yo‘nalishi aniqlandi; biologiya ta’limini innovatsion yondashuv asosida tashkil etishning mavjud holati o‘rganildi; tajriba-sinov ishlarini olib borish uchun mo‘ljallangan umumta’lim maktablarining moddiy-texnik ta’minoti va pedagogik shart-sharoitlari o‘rganildi; tajriba-sinov ishlari uchun zarur bo‘lgan materiallar tayyorlandi; o‘quvchilar tajriba-sinov ishlarini o‘tkazishga metodik va psixologik jihatdan tayyorlandi; tajriba-sinov guruhlarida mashg‘ulotlar tadqiqotchi tomonidan biologiya fani bo‘yicha innovatsion ta’lim muhitida ishlab chiqilgan maxsus o‘quv-metodik ta’minot bilan olib borildi.

Tajriba-sinov ishlari davomida biologiya ta’limida o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarining shakllanganlik darajasini aniqlashga harakat qilindi. Shu sababli, suhbat, kuzatish, so‘rovnomalar, anketa, intervyu, o‘z-o‘zini baholash, o‘z-o‘zini tahlil etish, faoliyat natijasini baholash, pedagogik topshiriqlar berish kabi metodlaridan foydalanildi. Olib borilgan kuzatishlar va tahlillar asosida umumta’lim maktablari biologiya ta’limida o‘quvchilarning kreativ

qobiliyatlarining rivojlanganlik darajasi hamda samarali kreativ faoliyatni olib borishga bo'lgan qiziqishlari bir xilda emasligi ma'lum bo'ldi.

O'rganuvchi tajriba-sinov bosqichining keyingi yo'nalishida o'quvchilarga biologiya fanidan kreativlikka yo'naltirilgan o'quv topshiriqlari, amaliy va laboratoriya ishlari, muammoli keyslar, to'garaklar faoliyati tashkil etildi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarining *ikkinchi (shakllantiruvchi) bosqichi* 2023-2024 yillar davomida olib borildi va ushbu bosqichda biologiya fanining didaktik imkoniyatlariga tayangan holda o'quvchilarning kreativ qobiliyatlari, kreativ sifatlariga ega ekanligi, biologiya fanidan nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash ko'nikmasi hamda biologiya fanidan o'quvchilarning sinfdan tashqari mashg'ulotlardagi ishtiroki, pedagogik muammoli o'quv topshiriqlarini yechish mahorati past, o'rta va yuqori darajalari ajratildi.

Mazkur bosqichda dastlabki bosqichda olingan anketa-so'rovnomalar, o'quv topshiriqlarining o'quvchilar tomonidan bajarilishi holati, ularning biologiya darslaridagi umumiy faoliyati, kreativ sifatlarini o'zlashtirganlik darajasi bo'yicha ma'lumotlar tahlil qilindi va natijalar quyidagicha bo'ldi (2-jadval).

2-jadval

O'quvchilarning kreativ sifatlarga egalik darajalari

Guruhlar	O'quvchilar soni	Baholash ko'rsatkichlari (darajalar bo'yicha)		
		Yuqori	O'rta	Past
Tajriba guruhi	320	106	112	102
Nazorat guruhi	320	90	100	130

Keyingi jarayonlarda tadqiqotchi tomonidan innovatsion ta'lim texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan, kreativ qobiliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv-metodik ta'minot, elektron axborot ta'lim resurslari, laboratoriya topshiriqlari, sinfdan tashqari mashg'ulot materiallari, tadbir ssenariylari tajriba-sinov guruhi o'quvchilariga taqdim etildi va mazkur o'quv-metodik ta'minot asosida mashg'ulotlar tashkil etildi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarining *yakunlovchi bosqichi* 2024-2025 yillarda olib borildi. Mazkur bosqichda ishlab chiqilgan o'quv-metodik ta'minot asosida kreativ qobiliyatni rivojlantirish bo'yicha olingan natijalar umumlashtirildi va matematik-statistika metodlari yordamida tahlil qilindi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarining muvaffaqiyatli olib borilishi quyidagi pedagogik shart-sharoitlarning yaratilishi hisobiga ta'minlandi:

- umumta'lim maktablari biologiya ta'limida o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan didaktik sharoitlarning ishlab chiqilganligi;
- pedagogik jarayonlarda elektron axborot ta'lim resurslaridan samarali foydalanilganligi;
- innovatsion ta'lim muhitining joriy qilinganligi.

Tadqiqot ishini amalga oshirish davomida o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarining rivojlanganlik darajasini baholovchi empirik tahlilini amalga oshirish maqsadga muvofiq ekanligi ma’lum bo‘ldi.

O‘quvchilarda kreativ qobiliyatning rivojlanganligi bo‘yicha olingan xulosalar va natijalarning har bir jihati bo‘yicha ballar umumlashtirilganidan keyin, tajriba va nazorat guruhlarida kreativ qobiliyatning rivojlanganlik darajalari ko‘rsatkichlari aniqlandi (3-jadval).

3-jadval

Tajriba-sinov ishlarining yakunlovchi bosqichida tajriba va nazorat guruhlarida kreativ qobiliyatlarning rivojlanganlik darajalari ko‘rsatkichlari

№	Umumta’lim maktablari	Tajriba-sinov guruhi				Nazorat guruhi			
		Kreativ qobiliyatlarning rivojlanganlik darajasi							
		“3”	“4”	“5”	Jami	“3”	“4”	“5”	Jami
1	Ellikqal’a tumani 1-umumta’lim maktabi	10	26	17	53	23	17	13	53
2	Ellikqal’a tumani 12-umumta’lim maktabi	9	23	21	53	27	19	9	55
3	Ellikqal’a tumani 41-umumta’lim maktabi	10	22	21	53	26	19	7	52
4	To‘rtko‘l tumani 2-umumta’lim maktabi	8	24	22	54	22	18	12	52
5	To‘rtko‘l tumani 5-umumta’lim maktabi	11	23	20	54	21	20	12	53
6	Beruniy tumani 3-umumta’lim maktabi	10	24	19	53	24	21	10	55
	Jami:	58	142	120	320	143	114	63	320


Yakunlovchi bosqichda respondent - o‘quvchilarning so‘rovnomalar va savollarga bergan javoblari hamda o‘quv topshiriqlarini bajarish natijalarini tahlil qilish natijasida tajriba-sinovning dastlabki bosqichidagi natijalarga nisbatan sezilarli darajada ijobiy o‘zgarishlar mavjudligini ko‘rish mumkin bo‘ldi. Bu o‘zgarishlar pedagogik tajriba-sinov ishlari mazmunidagi vazifalarning ijrosi, ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishga innovatsion yondashuv, elektron axborot ta’lim resurslarining tadbiri hamda biologik kompetentlik yo‘nalishidan kelib chiqib tashkil etilgan to‘garaklar va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar kutilgan natijani berganligini ko‘rsatdi.

Olib borilgan kuzatishlar va tahlillarga asosan tajriba va nazorat guruhlarida respondent-o‘quvchilaridagi kreativ qobiliyatlarning rivojlanganlik ko‘rsatkichlari tajriba boshidagi va tajriba oxiridagi natijalari solishtirildi (4-jadval).


O'quvchilarda tajriba boshida va tajriba oxirida kreativ qobiliyatlarning rivojlanganlik darajasi natijalari

Tajriba-sinov vaqti	Guruhlar	O'quvchilar soni	Rivojlanganlik darajasi		
			Yuqori	O'rta	Past
Tajriba boshida	Tajriba	320	56	79	185
	Nazorat	320	57	80	183
Tajriba oxirida	Tajriba	320	97	145	78
	Nazorat	320	62	108	150

Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlarning diagramma ko'rsatkichlari quyidagicha bo'ldi (4-5-rasm).



4-rasm. Tajriba boshida o'quvchilarda kreativlik qobiliyatining rivojlanganlik darajasi



5-rasm. Tajriba yakunida o'quvchilarda kreativlik qobiliyatining rivojlanganlik darajasi

Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etilgan biologiya darslarida o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga oid ko'rsatkichlar Pirsonning x_i kvadrat usuli asosida matematik-statistik tahlildan o'tkazish maqsadga muvofiq deb hisoblandi. Tadqiqotda χ^2 usulini qo'llash, bosh to'plam, ya'ni o'quv jarayonining normal taqsimot qonuniga bo'ysinishi haqidagi farazni tekshirishni talab etadi. Tajriba-sinov ishlarining kirish nazorati va chiqish nazoratlarida olingan o'zlashtirishlarini taqqoslash maqsadida tanlab olingan tajriba va nazorat guruhlarida o'zlashtirishni aniqlash, ya'ni guruhlardagi o'zlashtirishnin o'rtacha qiymati $\bar{x} = \frac{\sum x_i m_j}{N}$ deb olindi.

Bu yerda x_i – o'zlashtirish ko'rsatkichi bo'lib, ular 5-yuqori, 4-o'rta, 3-past darajalarning qabul qiladigan qiymatlari. m_j – baholardan takrorlanishlar soni, N –tajribada ishtirok etayotgan ta'lim oluvchilarning soni. Bunda N_0 gipoteza sifatida tajriba va nazorat guruhlarida baholash turlari bo'yicha kutilayotgan ehtimollar teng ($r_{11}=r_{21}, r_{12}=r_{22}, \dots r_{1s}=r_{2s}$) deb, al'ternativ N_1 gipoteza sifatida ($r_{11}\neq r_{21}, r_{12}\neq r_{22}, \dots r_{1s}\neq r_{2s}$) olindi. Ushbu statistik gipotezani tekshirish uchun χ^2 mezonidan foydalandi. Ya'ni, $\chi^2_{\text{кызамыс}} = \frac{1}{n_1 n_2} \sum_{i=1}^c \frac{(n_1 O_{2i} - n_2 O_{1i})^2}{O_{1i} + O_{2i}}$ formulasidan foydalanildi. Bu yerda

$\chi^2_{\text{кызамыс}}$ statistik qiymat, n_1 va n_2 tajribada ishtirok etgan respondentlar soni bo'lib, n_1 tajriba guruhidagi, n_2 –nazorat guruhlaridagi qatnashgan respondentlarning soni. O_{1i} va O_{2i} lar mos ravishda tajriba va nazorat guruhlaridagi baholash turlariga nisbatan olingan baholar miqdori.

Tadqiqot natijasida, barcha tajriba-sinov maydonchalari sifatida tanlab olingan umumta'lim maktablarida tajriba-sinov nihoyasida, tajriba guruhidagi respondentlarning kreativlik qobiliyatlari rivojlanganlik darajalari nazorat guruhiga nisbatan 1,11 (11%) yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi. Bu esa olib borilgan tadqiqot ishining samarador ekanligini ko'rsatadi.

XULOSALAR

“Innovatsion ta'lim texnologiyalari vositasida o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish (biologiya fani misolida)” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Kreativ faoliyatni amalga oshirish qobiliyati fan o'qituvchisining ijodkorligi, faoliyat va ijodkorlik samaradorligini tartibga solish metodlarining mutanosibligida, u yoki bu vaziyatda jarayonni ijodkorlik nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish, mavjud tajribalarni improvizatsiya qilish asosida o'zlashtirish qobiliyatida ifodalanadi;

2. Kreativ faoliyatni tashkil etishning ijodiy yechimi, noan'anaviy usullarni joriy qilish, ularning natijadorligini va o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladigan ijobiy fazilatlar va sifatlarni rivojlantirishni ta'minlashi hamda ularda kreativ faoliyatni tashkil etish va amalga oshirishga bo'lgan rag'batni uyg'otadi;

3. Tadqiqot davomida umumta'lim maktablarida biologiya fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishni muammoli o'quv topshiriqlari asosida rivojlantirish metodikasining samarador ekanligi o'z tasdig'ini topdi. Shu bilan birgalikda, o'quvchilarning kreativ faoliyati sinfdan tashqari mashg'ulotlar va laboratoriya ishlarida rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qitish metod va vositalari takomillashtirildi;

4. Biologiya fanini o'qitishda "Keys-stadi", "Zinama-zina" metodi, "O'z o'ringni top" metodi, "Qarama-qarshi munosabat" metodi, "Skarabey" metodlari didaktik nuqtai nazaridan o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi;

5. Tadqiqot davomida olib borilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari mazmunidagi vazifalarning ijrosi elektron axborot ta'lim resurslarining tadbqiqi hamda biologik kompetentlik yo'nalishidan kelib chiqib tashkil etilgan to'garaklar va sinfdan tashqari mashg'ulotlar kutilgan natijani berganligini ko'rsatdi. Ya'ni, mazkur mashg'ulotlarda o'quvchilarning kreativ qobiliyatlari sezilarli darajada rivojlanganligi ma'lum bo'ldi;

6. Kreativ faoliyatning ijodiy tavsifga egaligi o'quvchilardan ilg'or ish tajribalarini o'rganish, innovatsiyalarni bilishni hamda ta'lim – tarbiya jarayonlarida faol ishtirok etishni talab etadi. Shuningdek, kreativ faoliyatga innovatsion texnologiyalarni faol jalb etish natijasining samaradorligini oshiradi;

7. Biologiya fanidan sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'qituvchilarni kreativ faoliyatga jalb etish tizimining o'ziga xos ajralib turadigan xususiyatlaridan biri bu uning bir butunligi va yaxlitligidir. O'quvchilarni sinfdan tashqari mashg'ulotlarda kreativ faoliyatga jalb etish muammosi aniq bir maqsadga qaratilgan bo'lishi hamda bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lgan yaxlit integrativ tizim sifatida qaralishi zarur. Bu vazifaga qanchalik ob'ektiv va to'g'ri yondashilsa, kreativ faoliyat bilan bog'liq vazifalarni va muammolarni hal qilish shunchalik oson bo'ladi;

8. Tadqiqot natijasida barcha tajriba-sinov maydonchalari sifatida tanlab olingan umumta'lim maktablarida tajriba-sinov nihoyasida, tajriba guruhidagi respondentlarning kreativlik qobiliyatlari rivojlanganlik darajalari nazorat guruhiga nisbatan 1,11 (11%) yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi. Bu esa olib borilgan tadqiqot ishining samarador ekanligini ko'rsatadi.

AMALIY TAVSIYALAR

1. Umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini yanada takomillashtirish, ta'limning sifatli natijadorligiga qo'yilgan talablarni hisobga olgan holda pedagogik jarayonlarni tashkil etishni mazmun jihatdan boyitish hamda o'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirishga e'tibor aratish.

2. Biologiya fani bo'yicha zamonaviy elektron axborot ta'lim resurslarining yangi avlodini kreativ qobiliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar asosida yaratish va joriy etish.

3. Biologiya fanidan o'quv topshiriqlarini kreativlikka yo'naltirilgan holda ishlab chiqish, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini unumli tashkil etish hamda pedagogik jarayon ishtirokchilarining o'zaro hamkorlikka asoslangan munosabatini yo'lga qo'yish.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
PhD.03/2025.27.12.В.04.09.М ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

КУРБОНОВА ГУЗАЛ САЛАЕВНА

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ
СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ СРЕДСТВАМИ ИННОВАЦИОННЫХ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ (НА ПРИМЕРЕ БИОЛОГИИ)**

13.00.02 - Теория и методика обучения и воспитания (биология)

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ПЕДАГОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Нукус - 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером В2024.3.PhD/Ped8223.

Диссертация выполнена в Каракалпакском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.karsu.uz) и Информационно образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:	Жуманов Муратбай Арепбаевич доктор биологических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Махмудова Дилфуза Мелиевна доктор педагогических наук, профессор Салимова Сарвинноз Фарходовна доктор педагогических наук, доцент
Ведущая организация:	Ургенчский государственный педагогический институт


Защита диссертации состоится «07» мая 2026 г. в 09⁰⁰ часов на заседании разового Научного совета на основе Научного совета PhD.03/2025.27.12.В.04.09.М. при Каракалпакском государственном университете. (Адрес: 230112, г. Нукус, ул. Ч.Абдирова, дом 1. Зал заседаний Каракалпакского государственного университета. Тел.: (+99861) 223-60-47, факс (+99861) 223-60-78, E-mail: karsu.info@edu.uz).


С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакского государственного университета (зарегистрировано за №503). Адрес: 230112, г. Нукус, ул. Ч.Абдирова, дом 1. Тел.: (+99861) 223-59-49.


Автореферат диссертации разослан «22» апреля 2026 года.

(реестр протокола рассылки №4 от «22» апреля 2026 года.




Я.Н. Аметов
Председатель разового Научного
совета по присуждению ученых
степеней, д.б.н., профессор


М.К. Бегжанов
Ученый секретарь разового
Научного совета по присуждению
ученых степеней, д.ф.б.н., доцент


Т.И. Жугинисов
Председатель Научного семинара
при разовом Научном совете по
присуждению ученых степеней,
д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В условиях глобализации в мире большое внимание уделяется модернизации системы образования, формированию творческой личности с использованием инновационных образовательных технологий, эффективной организации творческой деятельности обучающихся. Распространение в странах с развитой системой образования теорий «креативности» («creativity»), качественного решения проблем, воспитания, развитие таких качеств обучающихся, как самовыражение (self-expression), самореализация (self-realisation), уверенность в себе (self-confidence), самооценка (self-evaluation), а также формирование «personal adjustment», то есть «гармонии личности и среды», требует постоянного поиска новых идей и развития навыков их практического воплощения¹.

На международном уровне ведутся научные исследования, направленные на повышение эффективности естественнонаучного образования, совершенствование методики преподавания, внедрение инноваций, эффективное использование возможностей инновационных образовательных технологий, подготовку творчески мыслящей молодежи, а также совершенствование учебно-методической базы учебных дисциплин. Подготовка к процессам обучения биологии, обладающим потенциалом для развития творческих способностей обучающихся и формирования продуктивной творческой деятельности, на основе инновационного подхода приобретает актуальное значение.

